

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF CREATIVE THINKING DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Dilfuza Abdukakhhorovna Khalilova

Teacher of the Department of Applied Psychology

Kokand State Pedagogical Institute

ANNOTATION

The article analyzes the psychological aspects of the development of creative thinking of children of primary school age and the opinions of scientists about the development of thinking.

Key words: thinking, creative thinking, thinking, structure of thinking, motivation for thinking, understanding, generalization, abstraction

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Dilfuza Abduqahhorovna Xalilova

Amaliy psixologiya kafedrasio'qituvchisi

Qo'qon davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada kichik mакtab yoshidagi bolalarning ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik jihatlari va tafakkurni rivojlantirish haqida olimlar fikrlari taxlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, ijodiy tafakkur, fikr yuritish, tafakkurning strukturasi, fikr yuritish motivatsiyasi, tushuncha, umumlashtirish, mavhumlashtirish.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются психологические аспекты развития творческого мышления детей младшего школьного возраста и мнения ученых о развитии мышления.

Ключевые слова: мышление, творческое мышление, мышление, структура мышления, мотивация мышления, понимание, обобщение, абстракция.

Bola shaxsini mustaqil ta'lif olishga o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlash bugungi kun maktabining asosiy vazifasidir. Ta'lif jarayonida o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operatsiyalari asosida tafakkur jarayoni faollashtiriladi. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma'lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar ham ko'pincha xuddi shunday beixtiyor fikr qilib turgan mahalda to'satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi Arximed solishtirma og'irlik qonunini zo'r berib aqliy mehnat qilish paytida emas, balki hech kutilmagan jarayonda, vannada cho'milib turgan paytida kashf etgan.

Ko'plab psixolog va fiziologlarning ta'kidlashlaricha, muammoning bunday oson ravishda

yechilishi hech kutilmagan yuqoridagi kabi beixtiyor hal qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko'rganicha bo'lgan davr ichida o'ylab, yillab qilingan mehnatning yakuni, ya'ni tugallanmay qolgan tafakkur jarayonining nixoyasiga yetishidir, deb baholamoqdalar.

Yirik fiziolog hamda psixolog olim V. M. Bexterevning izohlicha, bunday kutilmagan jarayonlarning ro'y berishiga asosiy sabab — bu o'rganilayotgan masala to'g'risidagi uqlashdan oldin zo'r berib bosh qotirish o'ylash (fikr yuritish) va butun zehni, shuning bilan birga diqqat e'tiborining tortilishi, kashf qilinishi zarur masalaga to'la to'kis yo'nalishdan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan murakkab, barqaror psixik holatning hukm surishidir.

Hozirgi davrda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli tuman qarash va ta'riflar mavjuddir. Jumladan, S. L. Rubinshteyn, tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishning asosiy predmeti jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo'lishdir, deb izohlaydi. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S. L. Rubinshteyn bu g'oyani rivojlantirib, uni sub'yeqt faolligining paydo bo'lishi deb atadi.

A. N. Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning strukturasi, fikr yuritish motivatsiyasi to'g'risida nazariy metodologik muammolarni o'rtaga tashlaydi.

P. Ya. Galperin fikriga ko'ra, tafakkur — bu orientirlash tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayonidir, ya'ni orientirovka jarayoni, orientirovka faoliyati. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarini yechishda sub'yeqtning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb tushuntiradi.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, ob'ektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni hisoblanadi. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarini, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalgalash oshirishning asosiy sharti sanaladi.

Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Kundalik ijtimoiy hayotimizda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtiolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Ayniqsa, maktab o'quvchilarida ijodiy tafakkur jarayoni va uning rivojlanishi masalalarini o'rganish hozirgi zamonda ushbu masalaning mantiqiy jarayonlarini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda. Ko`plab taniqli psixolog olimlar bu borada samarali ishlarni amalgalash oshirganlar.

Rus psixolog olimi L.S. Vigotskiy kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi jarayonida tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o'sishi bilan uzviy bog'liq holda o'rgangan. Shuning uchun u xorij psixologlarning (birinchi navbatda J. Pajening) egotsentrik nutq konsepsiyasini qattiq tanqid qilib, tafakkurni genetik metod orqali o'rganishni tavsiya qiladi.

Tafakkurning yosh davriga xos xususiyati uning rivojlanish tushunchalarni shakllantirish omillari bilan bog'liq. Bolalar narsalarning o'zgarmaydigan ba'zi belgilari doimiyligi payqay olmasligi ulardag'i tafakkurlarning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Buni J. Pajene o'z tajribasidan biridir. Unda 7-8 yoshli bolalarga ikkita bir hil hajmdagi hamirdan ularning ko'z oldida shu hamirlardan biridan kulcha yasalsa, hamirning miqdori bir xil bo'lmay qoladi, degan

xulosa chiqanganlar. Ma'lumki ta'limning dastlabki bosqichida bolaning umumlashtirish juda soda bo'ladi va faqat o'xshashlik belgisiga asoslanadi. Keyinchalik esa, bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini asoslanadi. Keyinchalik esa bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xusussiyati belgilarini ajratish va tasniflashga, narsa va xodisalarning xossalari qonuniyatlarining murakkab ichki bog'linish va munosabatlarning muhim belgilari bo'yicha umumlashtirishga o'tadi.

1 va 2 sinf o'quvchilari o'quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanib tashkil qiladilar. Quyosh momaqaldiroq sigir, avtomobil qush va hokazolar tog'risida fikr yurtishga "quyosh isitadi" yoritadi "momaqaldiroq guldiraydi" "sigir sut beradi", "avtomobil yuk tashiydi" "qush sayraydi" kabi hukmlar chiqaradilar, shuning uchun agar o'rganilayogan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurrti tug'ilsa darrov ko'rindigan misolga murojat qiladilar.

O'quvchilar 3-sinfga o'tganidan so'ng umumlashtirishda moddiy dunyodagi voqeikning eng muhim munosabat va bog'lanishlarini aks etuvchi ichki belgilariga tayanadilar. Jumladan suv, havo metal va boshqa narsalarning issiqdan kengayishini umumiyligi muhim alomatiga asoslanib umumlashtira oladilar. Bundan tashqari o'simliklar dunyosi ularning rivojlanishi ko'payishi, chanoqlanishi kabi belgilarga tayanib "jonli tabiat" iborasini ataydilar. Bolalarning mulohazalaridan "paxta dalada" o'sadi, uni paxtakorlar yetishtiradilar, zavodda tozalanadi so'ng fabrikada to'qiladi. Kiyim-kechak tayyorlanadi (2-sinf o'quvchisi) "Bodom daraxti issiq iqlimli" o'lkalarga osadi, (1-sinf o'quvchisi) "tulki yovvoyi yirtqich hayvon u o'rmonda yashaydi. Jonivorlarni turib yeb tirkchilik qiladi. Mo'ynasi qimmatbaho shuning uchun ovchilar uni ovlaydilar. Uning mo'ynasidan pal'to yoqalar telpak, po'stin tikiladi. (3-sinf o'quvchisi)

Xulosa qilib aytiganda bolalarning mulohazalaridan ko'rinish turibdiki, ularda muhim belgilar miqdori yetarli darajada emas. Ular o'simliklarni tariflaganlarda faqat daraxtlarning qaysi turga mansubligi qayerlarda o'sishi inson va hayvonlar uchun qanchalik foydalangani ta'kidlaydilar. Hayvonlar to'g'risida mulohaza yuritganlarda ham bir muncha kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Birlamchi xususiyatlar va hossalarga e'tibor bermaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilar ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o'zlashtirsalarda oldingi darslarda o'zlashtirishgan turli alomatlar belgilari chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiramadigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. O'quv jarayonida yildan yilga o'quvchining mantiqiy tafakkuriga bo'lgan talabi ortib boradi. O'quvchilar analiz va sintez qilish hamda taqqoslashni mashq qilish natijasida narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy belgilardan ajratishni o'rganadilar va shu tariqa o'zlarining abstraksiyalash faoliyatlarini rivojlantiradilar. Konkretlikda abstrakt holatga o'tish va abstrakt holatdan konkretlikka ko'chishni takomillashtirish zamirida mazkur operatsiyalar shakllanib

boradilar.

O'quv materiallarini puxta o'zlashtirib olishda va to'g'ri xulosa chiqarishda umumlashtirishning roli benihoya kattadir. O'qishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilar narsa va hodisalarni faqat tashqi belgisiga, yaqqol ko'zga tashlanadigan belgisiga qarab umumlashtiriladilar. Lekin umumlashtirishning bu oddiy formasi so'nggi ta'lim bosqichlarida uncha yaroqli bo'lmay qoladi. Chunki o'quv materialining eng muhim belgisi asosida ichki

bog'lanish va munosabatlarini aniqlashga to'g'ri keladi, ammo bu ishlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari darrov uddalay olmaydilar. Buning uchun ularda umumlashtirish faoliyatini yanada taraqqiy ettirish kerak. Buning uchun bolalar bilan sistemali mashg'ulot olib borish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundagina ular uchun bilimlar sistemasini o'zlashtirish birmuncha yengil ko'chadi. Ma'lumki ta'lim jarayonida tushunchalarni va qonuniyatlarni nomuhim belgisiga binoan egallash hollari tez-tez

uchrabyu turadi. Bu hol esa o'quv materiallarini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi, shuning uchun o'qish faoliyatida ularda qiyinalish hissi paydo bo'ladi. Biroq, bu qiyinchilikdan qutilish imkoniyati mavjud. Buning uchun o'quvchilar tushunchalarni to'g'ri va oqilona yo'l bilan umumlashtirish faoliyatini taraqqiy ettirish, umumlashtirish usullariga o'rgatilishi lozim. "Rubel kubiklari" o'xshashlik va farqlarni ajralish metokilaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

"Aqlda hisoblay olish metodikasi yordami bilan bolaning arifmetik amallarni va turli xil kasr sonlar yani oddiy o'nli butun kasrlarni tezlikda" aqlda ishlay olish qobiliyatini psixodiagnostika qilish mumkin.

Agar bolaga sanoqni yoshiga qadar o'rgatilgan bo'lsa unda berilgan metodikani maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab qo'llash mumkin. Asosan bu metodika maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning qobiliyatlarini baholashga xizmat qiladi. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy taraqqiyotini rivojlantirishda qo'llaniladigan bir necha metodikalardan foydalanish uchun to'liq holda tavsiya etamiz. Bu metodikalar o'quvchilarni faollikka undaydi, qiziqishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ortiqchasini o'cherish metodikasi umumlashtirish va chalg'ish muhim belgini ajratish kabi tafakkur jarayonlari darajasini o'rghanish uchun qo'llaniladi. Bu metodikaning ham ikki turi bor: predmetli va so'zli. Metodika o'tkazilish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi: O'quvchilarga beshta so'z beriladi. Ularning to'rttasi umumiyl belgi bilan birlashtirilgan. Beshinchi so'z ularga to'g'ri kelmaydi. Uni topib tagiga chizish kerak. Faqat bir so'z ortiqcha bo'lishi mumkin.

Misol:

A) tarelka, b) piyola, v) stol, g) kastryulka, d) choynak.

Birinchi, ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi so'zlar idishni bildiradi. Uchinchi so'z mebel, shuning uchun uning tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

A) bormoq, b) sakramoq, v) o'ynamoq, g) o'tirmoq. d) qochmoq.

To'rtta so'z harakat holatini bildiradi. «O'tirmoq» so'zi esa tinch holatni bildiradi.

REFERENCES

1. Asqarova Dilorom, Bolalalarini maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi, o'quv qo'llanma, Navro'z nashriyoti-2020
2. Axler S., F.W. Gehring: Graduate Tehts in the Mathematics. Springer. and others. June 2002.
3. Ibragimova S. G., Muxammadjonova X. Kichik mакtab yoshidagi bolalar aqliy taraqqiyoti rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 501-505.

4. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451.
5. Abdullayevna, Salieva Dilorom, and Saipova Mehri Valievna. "Mental Characterstics Of Experience Teenagers From Labor Immigrant Families Who Feel Lonely." *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): 423-427.
6. Mirjonovna Omonova Sevara. "Oliy ta'limda ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishning tashkiliy masalalari." *Ta'lim fidoyilari* 13 (2022): 41-45.
7. Yo'lchiboyeva, D. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim dasturini amaliyotga tatbiq etishning samarali usullari." *XALQ TA'LIMI* 1 (2021): 115-119.
8. Yulchiboyeva, Dilfuza. "Main tasks of educational processes." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.6 (2021): 23-27.
9. Ergashevna, Yulchiboyeva Dilfuza. "PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF EMOTIONAL STATES IN A PERSON." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.05 (2021): 583-587.
10. Ergashevna, Yulchiboeva Dilfuza. "Psychological and Pedagogical Aspects of the Development of the Emotional Sphere of Preschool Children." *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 5 (2022): 367-371.